

O`ZBEK XONANDALIK SAN`ATI XUSUSIDA

Shukurov Aziz

Yorqulov Masudjon

(Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi, O'zbekiston)

Annotatsiya: *Maqomlarning, mumtoz musiqaning tarixiy shakllanishi va ularning janrlari haqida so'z boradi. Mualliflar madaniy ma'lumotlar hamda yozma manbalarga tayanib, mavjud ilmiy – tarixiy adabiyotlar asosida muammoga aniqliklar kiritilgan. Mumtoz musiqaning tarixiy shakllanishi bo'yicha mavjud o'ziga xos yondashuvlar va nazariyalarni qiyosiy tahlil etgan.*

Kalit so'zlar: *Maqom, ansambl, mumtoz musiqa, bastakor, sozanda, meros, shashmaqom.*

Аннотация: *Обсуждается историческое становление макомов, классической музыки и ее жанров. Авторы, опираясь на культурологическую информацию и письменные источники, внес ясность в проблему на основе имеющейся научной и исторической литературы.*

Ключевые слова: *маком, ансамбль, классическая музыка, композитор, музыкант, наследие, шашмаком.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish, ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, musiqa va san'at sohasidagi ta'lim, malaka, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish muammolari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u ko'pchilik sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan an'anaviy musiqa san'ati ekanligi haqida guvohlik beradi. An'anaviy musiqa — bu badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilgan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va yetuk sozanda-bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda.

O'zbek xonandalik san'atining dastlabki ildizlari juda qadim zamonlarda boprib taqaladi. Bu davrni salkam 3000 yilga teng bo'lgan o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, nomlanishi va sulolalarning almashinuvidan qat'iy nazar o'zbek xalqining tarixi qadim zamonlardan buyon Turon zaminida kechgan etnik va madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shularni nazarda tutgan holda bu an'anaviy san'at tadrijiyotini shartli ravishda 5 davrga bo'lish mumkin. Birinchi davreng qadimgi davrlardan boshlab taxminan I asrgacha, ikkinchi davr I –V asrlar, uchinchi davr VI-VIII asrlar, to'rtinchi davr IX-XV asrlar, beshinchi davr XVI asrdan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrdan iboratdir.

Eng qadimgi davrlardan boshlangan birinchi davr mobaynida hali kasbiy xonandalik haqida gapirish joiz ko`rinmaydi, chunki bu zamonlarda aytim san`atining dastlabki kurtaklari xalq og`zaki ijodida unib o`sa boshlagan. Darhaqiqat, bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodiyoti namunalarida eng qadimgi davrlarga mnansub ohang-ritm unsurlarini anglashimiz mumkun.

Ikkinchi davr – xonandalik san`atining kasbiy asoslari yuzaga kelganligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar Kushon podsholigi davridan amalga oshganligi bir qadar asoslidir.

Ma`lumki, bu davrga kelib, madaniyat ancha yuksaldi, til-yozuv madaniyati rivojlandi, musiqa san`ati ham ancha ravnaq topdi. Bunga aksariyati musiqachilar siymosi tasvirlangan ashyoviy topilmalarni misol keltirish mumkin. Chunonchi, Xolchayon torli ud sozini chalayotgan qiz bola xaykalchasi yaxshi xolda saqlangan. Shuningdek, Tuproqqal`a Ko`y qirilgan qal`alardan arfa, ikki-uch torli tirnama va boshqa mashq qilayotgan musiqachilarning haykalchalari topilgan.

Ma`lumki “Avesto” ning “Gotlar” nomi bilan mashhur madhiyalar qismi muayyan ohanglari asosida aytilgan. Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko`ra ushbu kuy-ohanglari bizning davrga qadar maqomlar tarkibida “goh” (ya`ni Dutox, Segox, Chorgox, Panjgoh va boshqalar) nomi qo`shilgan musiqiy meros namunalarida yetib kelgan. Ushbu masalani bizgacha yetib kelgan maqomot tuzilmalari (Shahsmaqom, Xorazm maqomlari, Farg`ona –Toshkent maqom yo`llari) asosida o`rganish e`tiborli natijalari bilan g`oyat qiziqarlidir. Zero, o`ziga xos “musiqiy qomus” bo`lgan maqomlarda ko`hna davrlarga ishora etuvchi kuy-ohanglar yaxshi saqlangan.

Binobarin, maqomlardagi “goh” atamasiga asoslangan Dugoh, Segoh, Chorgoh va Panjgoh nomli musiqiy namunalarda qadimiylilik davriga oid badiiy mahsulning muhim izlari saqlanib qolganligining o`ziyoq katta ilmiy qiziqish uyg`onadi.

Uchinchi davr- (VI-VIII asrlar) ga kelib turkiy – o`zbek dostonchilik an`analari jadal shakllana boshlagan. Bunda qadimdan kelayotgan “ichki ovoz” uslubi dostonlarni kuylashda asosiy aytim usuli sifatida qaror topdi. Bu tarzdagi kuylash usuli hozirga qadar Surxandaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand va Toshkent-Farg`ona dostonchilik maktablarida hanuz o`z kuchini saqlab kelmoqda.

Ma`lumki, baxshilar, jirovlar san`atida so`z ustasi, qo`shiq kuylovchisi vas oz (ko`biz yoki do`mbira) cholg`uchisi birlashgan bo`ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so`zlab hikoya etsalar, she`riy bo`laklarini mahsus aytim shaklida ichki (bo`g`iq) ovoz bilan kuylaydilar va bo`nda ko`biz yoki do`mbira so`zidan jo`rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni ichki ovozlarda kuylash odati qadimgi an`ana bo`lib, bunday tarzda kuylash uchun esa baxshilar zarur ijroviy malakalar hosil etishgan. Baxshilarni tarbiyalab yetishtirishda “ustoz-shogird” maktabi qo`llaniladi. Bu shunday maktabki, unda baxshi bo`lish istagidagi talabgor ustoz-baxshiga o`quvchi –shogird tushadi. Shundan so`ng u ko`p yillar (5-10 yil) davomida ovozda kuylash, do`mbira chertish

kabi ijrochilik mahoratlarini o'rganish bilan birga yana "Alpomish", "Avazxon", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarni ham yod oladi, ularni aytib berish uslublarini o'rganadi.

Hususan, Surxandaryo Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Abdulla Nurali o'gli va Islom o'gli kabi shopirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyondalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'gli, Mardonqul Avliyoqul o'gli, Umar Safar o'gli, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridir.

To'rtinchi davr (IX-XV asrlar). O'zbek xalqi Islom dinini qabul etgan davrdan boshlab uning ma'naviy ruhiyati, yangi dunyoqarash mazmuni bilan sug'orildi, ijtimoiy-madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu xalq hayotining turli ko'rinishlarida, hususan, kundalik turmush tarzi va yangi shakllangan marosim va urf-odatlarda o'z aksini topgan. Ushbu o'zgarishlar zamirida musiqiy navolar ham anglashiladi.

Zero, Islomiy diniy e'tiqod xalqimiz qalbini zabt etishida uning insonni azizu-mukarram ta'limoti bilan birga qalblarni hayajonga soluvchi samoviy kuy-ohanglari ham ahamiyatga molik bo'ldi. Bunday kuy-ohanglar esa eng avvalo muqaddas Qur'oni Karim sura-oyatlarini tartil va tajvid kabi uslublarda qiroat etish bilan yuzaga keladi. Shu bilan birga turli yig'in va majlislarda tasavvuf she'riyatining nodir durdonalari bo'lgan Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Boborahm Mashrab ijodi namunalari ma'lum kuy-ohanglariga bog'lab aytib kelinadiki, bu an'ana Yassaviyxonlik Navoiyxonlik, Mashrabxonlik kabi yuritiladi.

O'tmishda Ahmad Yassaviy hikmatlari qalandarlar va darvishlar tomonidan ko'cha-kuylarda ham aytib yurilgan. Shu boisdan ular xalq orasida ommalashib ketgan. Navoiyxonlik va Mashrabxonliklar ham turli yig'in-majlislarda amalgam oshirilib kelingan. Shu bilan birga, Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab nazmi ashula va maqom san'atida keng qo'llanilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kitobxonlik an'analari pirovarida o'zbek xonandalik san'atida "ochiq ovoz" ("nor ovozi", "tik ovoz", "pang ovoz" va b) uslubi qaror topganligi ehtimoldan holi emas. Har holda "ochiq ovoz" uslubining yozma adabiyot bilan bog'liq aytim janrlari (ashula, suvora, maqom, Xorazm dostonlari) da an'anaviy qo'llanib kelinayotganligi shu kabi xulosaga ma'lum asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Xorazm dostonchilik maktabi boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan (masalan, Surxandaryo-Qashqadaryo dostonchilik an'alaridan) farqli jihatlarga ega.

Bu farqlar, asosan, quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari (ichki) "bo'g'iq ovoz" da emas, balki "ochiq ovoz" uslubida ko'chgan hususiyatlar bilan aytiladi.

b) Ko'pgina mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbira sozi jo'rnovoz sifatida qo'llansa, Xorazm dostonchiligida Pang ovoz uslubiga monand holda dutordan foydalaniladi. Shuningdek, baxshi aytimiga jo'rnavoz sifatida ansambl ham qatnashishi mumkin. Bundan ustoz-baxshi dutor (xozirda esa tor yoki rubob) da, qolganlari esa, g'ijjak, bulamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

v) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan “Oshiq G`arib va Shohsanam”, “Go`ro`g`li”, “Kuntug`mish”, “Bozirgon”, “Oshiq Oydin” kabi dostonlar tashkil etadi.

Baxshilarning dostonchi qiyofasiga uzil-kesil o`tishi jarayoni XVII asrda ro`y berganini tahmin qilish mumkin. Bunga Xorazmshoh tarixchi olim Abulg`ozi Bahodirhon “Shajaroli tarokima” asarida ko`p marotaba uchraydigan “Burung`i o`tgan baxshilari va umri marakada o`tgan yaxshilari andik aytib tururlar kim...” iborasi ma`lum asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)

2. Zamira Suyunova. Yosh xonandalar talqinida so'z talaffuzi muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent-2006 yil. 23 bet.

3. “Qo'shiq - mening borlig'im” (R. Tursunov va M. Dadaboeva bahsi). O'zbekiston adabiyoti va san'ati” haftanomasi. 2008. 25 aprel. 6. Zohidov F. Komiljon Otaniyozov. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.

4. Примов Р. Т. и др. Психологические знания и культура учителя музыки // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2017. – №. 3. – С. 65-66.

5. Мурадов М. К. Всесторонне развитой личности средствами музыкального искусства // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 35-38.